MINTAQA HUDUDLARI SANOAT SALOHIYATI MEZONLARI TAHLILI

ANALYSIS OF CRITERIA FOR INDUSTRIAL POTENTIAL OF REGIONS

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
Urganch Davlat Universiteti (UrDU) Stajor o‘qtuvchisi

Dunyouz@mail.ru

+998 99 537 75 77

Annotatsiya: Maqolada mintaqalarda sanoatning barqaror rivojlanishi va sanoat salohiyati mezonlarini baholashga oid qarashlar tizimlashtirilgan. Hududlar rivojlanishiga xos xususiyatlarga ko‘ra sanoat salohiyati mezonlari tanlangan va ularga muvofiq baholash ishlari amalga oshirilgan. Natijalarga muvofiq mintaqa hududlarida sanoat salohiyatini oshirish takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat; ish bilan bandlik; infratuzilma; qurilish; ekologiya; investisiya; Xorazm.

Аннотатсия: В статье систематизированы подходы к устойчивому развитию промышленности в регионах и проведена оценка критериев промышленного потенциала. Критерии промышленного потенциала были ***отобраны с учетом 2специфики развития регионов, проводилась оценки. По*** результатам были разработаны предложения по повышению промышленного потенциала регионов.

Ключевые слова: промышленность; занятость; инфраструктура; строительство; экология; инвестиции; Хорезм.

Abstract: This article systematizes approaches to sustainable industrial development in regions and assesses industrial potential criteria. The criteria for industrial potential were selected based on the specific development characteristics of the regions, and the assessment was conducted. Based on the results, proposals were developed for increasing the industrial potential of the regions.

Key words: industry; employment; infrastructure; construction; ecology; investments; Khorezm.

Mintaqalar barqaror rivojlanishining asosiy mezonlari uning soha va tarmoqlaridagi izchil o‘sish jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, ulardagi joriy holat va uning istiqboldagi ijobiy jihatlarini ta’minlash mavjud holatni baholashni talab etadi. Shu bois, mintaqa barqarorligini ta’minlash, yalpi hududiy mahsulotning izchil o‘sish sur’atlariga erishish sohalar faoliyati natijalari asosida belgilanadi. Bunda sanoatning rivojlanishi, uning ishlab chiqarish faoliyatini uzluksizligi muhimdir. Lekin, sanoat kapital talab soha ekanligini hisobga olsak, risk yuqoriligidan dalolat beradi.

Xorazm viloyati va uning hududlarida sanoat salohiyatini baholash avvalida mos metodik yondashuvni tanlashimiz zarur bo‘ladi. Bu jarayon esa mavjud usullarni tahlil qilishni talab etadi.

Bir qator mualliflar izlanishlarida ko‘rsatkichlarni hisoblashning umumiy qabul qilingan metodologiyasi mavjud emas deb berilgan bo‘lsada, integral ko‘rsatkichlarni shakllantirish bir qator ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi, deb ta’kidalangan. Jumladan, nazariy asosini shakllantirish; ma’lumotlarni tanlash; ko‘p o‘zgaruvchili tahlil; ma’lumotlarni me’yorlashtirish; og‘irlik koeffisiyentlarini aniqlash; ko‘rsatkichlarni agregatlash; ishonchlilik tahlili; kompozit ko‘rsatkich

tuzilishini tahlil qilish[1]. Shuningdek, mintaqalar darajasida mezonlarni baholashda integral usuldan foydalanish boshqa bir guruh tadqiqotchilar tomonidan ham ilgari surilgan[2].

Shuningdek, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik mezonlarga muvofiq integral usulda baholash ilgari surilgan.

$$I=(X,Y,Z) \quad (1)$$

Bunda: I – sanoat korxonasining barqaror rivojlanishini integral mezoni; X – iqtisodiy mezonni ifodalovchi barqarorlik ko‘rsatkichlari; Y – ekologik mezonni ifodalovchi barqarorlik ko‘rsatkichlari; Z – ijtimoiy mezonni ifodalovchi barqarorlik ko‘rsatkichlari[3].

Bunda, statistik usullar asosida baholash bajarilganda aniq vaqt uchun iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarning qiymatini aniqlashga ega bo‘linadi. Dinamik usulda esa, davr oralig‘idagi o‘zgarishlarni baholash mumkin bo‘ladi. Ya’ni, tegishli ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati aniqlanadi[4]. Fikrimizcha, mazkur usullar odatda mintaqa va korxonalarning o‘zaro rivojlanish jarayonini solishtirish uchun yetarli emas. Buning uchun esa, albatta eng yuqori yohud eng kichik ko‘rsatkichlarga nisbatan o‘zgarishlarni, ya’ni integral usullarni qo‘llaymiz.

Yuqoridagilar qatori, sanoat salohiyatini o‘rganish bilan bog‘liq usular ham bir qator tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan. Jumladan, G‘.S.Rasulov sanoat

[1] Валитова Л.А., Шерешева М.Ю. (2020). Динамический аспект в управлении устойчивым развитием территорий: пример Поволжского макрорегиона // Управленец. Т. 11, № 3. С. 18–32. DOI: 10.29141/2218-5003-2020 11-3-2.
[2] Скворцова М.А., Малышева О.О. Применение метода многоугольников для анализа дифференциации регионов Приволжского Федерального округа по уровню социальной комфортности проживания населения // Экономика, Статистика и Информатика. №4, 2014. С. 179-183.
[3] Перский Ю.К., Лепихин В.В., Семенова Е.В. Методика и модели оценки промышленного предприятия как устойчивой системы // ВЕСТНИК ПЕРМСКОГО УНИВЕРСИТЕТА. №1(24), 2015. С. 103-110.
[4] Третьякова Е.А., Алферова Т.В., Пухова Ю.И. Анализ методического инструментария оценка устойчивого развития промышленных предприятий // Вестник Пермского университета. Вып.4(27), 2015. С. 132-139.

salohiyati bilan bog‘liq tadqiqotlarni olib borgan bo‘lib, uning izlanishlarida statistik tahlil usullari keng qo‘llagan[5]. Shuningdek, D.G.Mamadjonov tadqiqotlarida ham statistik usullar keng qo‘llanilgan[6]. Fikrimizcha, qo‘llanilgan usullar zamirida asosiy e’tibor sohaga tegishli statistik ma’lumotlarni birlamchi tadqiq qilishga e’tibor qaratilgan. Bu esa, sanoat ishlab chiqarish salohiyatini to‘liq baholash uchun yetarli hisoblanmaydi. Chunki, sanoat salohiyatini to‘liq ochib berish uchun uning ishlab chiqarish faoliyati qatori xomashyo manbalari, resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga ham e’tibor qaratishimiz zarur.

B.B.Salimov sanoat salohiyatini mintaqaviy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lib, muallif ishlab chiqarishning o‘sish jarayonlarini baholagan. Baholashda indeks usullaridan foydalangan[7]. Bizning hisoblashimizcha, mazkur usul hududiy tadqiqotlar uchun qulay usullardan biri sanaladi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz olimlaridan I.Yu.Umarov ham sanoat salohiyatini baholashga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish salohiyatining hududlar kesimida guruhlash amalga oshirilgan[8].

Sanoat salohiyatini baholashda nisbatan keng ko‘lamli tadqiqotlardan biri S.O.Xomidov tomonidan amalga oshirilgan. Uning izlanishlarida baholash jarayonini amalga oshirishda mavjud ko‘rsatkichlar tizimini ham hududiylik bo‘yicha tasniflash amalga oshirilgan[9]. Shu bilan birga, sanoat salohiyatini chuqur tahlil etgan ishlardan biri M.F.Mahmudovning ishlari hisoblanadi. Uning

[5] Расулов Ғ.С. Саноат тармоғини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. // “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №3, 2018 йил.
[6] Мамаджонов Д. Г. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида саноат тармоғининг бошқарув самарадорлигини ошириш йўллари. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил.
[7] Салимов Б.Б. Саноат махсулоти ишлаб чиқаришнинг ҳудудлар бўйича қиёсий таҳлили ва уни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.
[8] Умаров И.Ю. Ўзбекистон республикасида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш салоҳияти // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил.
[9] Хомидов С.О. Саноатнинг ривожланиш тенденциясини моделлаштириш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Иқ. фанлари бўйича (PhD) дисс. авт. 08.00.06 - Эконометрика ва статистика. ТДИУ. 2017 й.

izlanishlarida sanoat tarmog‘i rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, jarayonlari va ularni tadqiq etishning miqdoriy usullari tizimlashtirilgan. Sanoat salohiyatini baholashda regression tahlil hamda indeks usullari foydalanilgan[10]. Amalga oshirilgan baholash natijalari bo‘yicha mintaqada sanoat salohiyatidan foydalanish holatini baholash uchun quyidagicha usuldan foydalanilgan:

$$ИЧС_i = y/Y \quad (2)$$

Bunda: $ICHS_i$ – ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish indeksi; y – sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi, mlrd.so‘m; Y - sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmining tanlangan omillar (X_n) natijasidagi o‘zgarishlar.

Bunda, muallif regression tahlil natijasida olingan funksiya sanoatning ishlab chiqarish salohiyatini tushuntirishda qo‘llaniladi, deya ta’kidlab o‘tgan. Jumladan, agar ICHS≥1 bo‘lsa, sanoatning ishlab chiqarish salohiiyatidan samarali foydalanilayotganligi, aksincha ICHS≤1 bo‘lsa, sanoatning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasi pastligini anglatadi[11].

Fikrimizcha, mazkur usullar sanoatning resurs imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan. Aslida, salohiyatni baholashda ikki yo‘nalishdan kelib chiqib hisob-kitob qilishimiz zarur. Jumladan, birinchi navbatda ishlab chiqarish omillarining holatini baholashimiz, ularning mavjudligini o‘lchashimiz hamda o‘rganishimiz zarur. Ikkinchi tarafdan esa, sanoatning faoliyati natijasida realizatsiya ko‘lamini, uning o‘zgarishini baholashimiz maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o‘rtacha darajadagi hududlar eng katta guruhni tashkil etib, Gurlan, Urganch Hazorasp, Shovot, Bog‘ot, Xonqa, Xiva va Qo‘shko‘pir tumanlarini o‘z ichiga olgan. Mazkur hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish barqaror bo‘lsada, yuqori samaradorlikka erishilmaganligini

[10] Маҳмудов М.Ф. Ўзбекистоннинг саноат ишлаб чиқариш салоҳиятини баҳолаш / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. www.iqtisodiyot.uz.
[11] Маҳмудов М.Ф. Ўзбекистоннинг саноат ишлаб чиқариш салоҳиятини баҳолаш / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. www.iqtisodiyot.uz.

kuzatishimiz mumkin. Bu holat mazkur hududlarda sohani diversifikatsiya qilish, qishloq xo‘jaligining an’anaviy sohalaridan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga o‘tish jarayonlarining sust ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu hududlarda agrar soha infratuzilmasini ham rivojlantirishga e’tibor qaratish talab etiladi.

Demak, mintaqa shahar va tumanlaridagi sanoatning xom ashyo salohiyatiga muvofiq agrar soha ustuvor ekanligini ko‘rmoqdamiz. Ya’ni, yuqori va o‘rta darajadagi hududlar butun mintaqaning 76,9 foizini tashkil qilmoqda. Bu bir tarafdan mintaqaning agrar hudud ekanligini ifodalasa, ikkinchi taraafdan yuqori sanoat xom ashyo bazasini mavjudligini ko‘rsatadi. Kelgusida esa oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ekasportini kengaytirishga hamda sohaning salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarurki, mazkur hududlarda ustuvor tarmoqlar sifatida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan. Ya’ni, sanoat sohasining rivojlanish darajasi past. Demak, mintaqada ekologik barqarorlik bilan sanoat salohiyati o‘rtasida teskari bog‘lanish mavjud.

Shunday bo‘lsada, Xorazm viloyatida ekologik salohiyatni oshirish uchun sanoati rivojlangan hududlarda yashil energiya olish tizimini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bunda mintaqaning aholi zichligi past bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatlari bilan chegaradosh hududlarda amalga oshirish imkoniyati yuqori.

Demak, Xorazm viloyatida sanoat salohiyati past darajada bo‘lib, hududlar kesimida keskin nomutanosiblik va beqarorlik mavjud. Bu esa mintaqa hududlarida sanoatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni talab qilmoqda. Buning uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

sanoati rivojlangan hududlar bilan qoloq tumanlar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini tashkil qilish;

yirik sanoat korxonalari bilan kichik sanoat korxonlari integrasion aloqalarini kengaytirish;

investisiyalarni hududlar kesimida maqbul va oqilona taqsimlash siyosatini yuritish;

kichik sanoat hududlarini kengaytirish hisobiga yuqori texnologiyali investisiyalarni xorijiy texnologiyalar transferi orqali jalb qilish;

ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatiga soliq va imtiyozli kreditlar ko‘lamini kengaytirish hisobiga sanoat mahsulotlari yaratish faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida Xorazm viloyati shahar va tumanlarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga, sohaga oid tarmoqlar rivojlanishiga hamda umumiy holda sanoat salohiyati o‘sishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Валитова Л.А., Шерешева М.Ю. (2020). Динамический аспект в управлении устойчивым развитием территорий: пример Поволжского макрорегиона // Управленец. Т. 11, № 3. С. 18–32. DOI: 10.29141/2218-5003-2020 11-3-2.
2. Скворцова М.А., Малышева О.О. Применение метода многоугольников для анализа дифференциации регионов Приволжского Федерального округа по уровню социальной комфортности проживания населения // Экономика, Статистика и Информатика. №4, 2014. С. 179-183.
3. Перский Ю.К., Лепихин В.В., Семенова Е.В. Методика и модели оценки промышленного предприятия как устойчивой системы // ВЕСТНИК ПЕРМСКОГО УНИВЕРСИТЕТА. №1(24), 2015. С. 103-110.
4. Третьякова Е.А., Алферова Т.В., Пухова Ю.И. Анализ методического инструментария оценка устойчивого развития промышленных предприятий // Вестник Пермского университета. Вып.4(27), 2015. С. 132-139.

5. Расулов Ғ.С. Саноат тармоғини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. // “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №3, 2018 йил.

6. Мамаджонов Д. Г. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида саноат тармоғининг бошқарув самарадорлигини ошириш йўллари. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил.

7.Салимов Б.Б. Саноат махсулоти ишлаб чиқаришнинг ҳудудлар бўйича қиёсий таҳлили ва уни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.

8. Умаров И.Ю. Ўзбекистон республикасида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш салоҳияти // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил.

9. Хомидов С.О. Саноатнинг ривожланиш тенденциясини моделлаштириш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Ик. фанлари бўйича (PhD) дисс. авт. 08.00.06 - Эконометрика ва статистика. ТДИУ. 2017 й.

10. Маҳмудов М.Ф. Ўзбекистоннинг саноат ишлаб чиқариш салоҳиятини баҳолаш / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. www.iqtisodiyot.uz.

11. Маҳмудов М.Ф. Ўзбекистоннинг саноат ишлаб чиқариш салоҳиятини баҳолаш / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. www.iqtisodiyot.uz.